




CHO'L O'SIMLIKLARINING MAVSUMIY O'ZGARISHI VA QORAKO'L QO'YLARINI OZIQLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Abdurozzoqova G.F.

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22302414>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 15-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 31-avgust 2026 yil

KEY WORDS

cho'l yaylovlari,
qorako'lchilik, oziqabop
o'simliklar, shuvoq, izen, olabuta,
keyreuk, saksavul, cho'g'on,
ozuqaviy qiymat, xom protein,
hazm bo'lishi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonning cho'l yaylovlarida keng tarqalgan asosiy oziqabop o'simlik turlari (shuvoq, izen, olabuta, keyreuk, saksavul va cho'g'on) hamda ularning ozuqaviy qiymatining vegetatsiya fasllari davomidagi mavsumiy o'zgarishi tahlil qilingan. Qorako'lchilik xo'jaliklarida yaylov ozuqalaridan oqilona foydalanish va qo'ylarning fasllar bo'yicha to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish yuzasidan ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi cho'l va yarim cho'l hududlari mamlakatimiz chorvachiligida, xususan, qorako'lchilik tarmog'ida yetakchi ozuqa bazasi hisoblanadi. Qizilqum va Ustyurt kabi cho'l mintaqalarining murakkab iqlimiy sharoitida o'suvchi kserofit hamda galofit o'simliklar qorako'l qo'ylari uchun yil davomidagi asosiy ozuqa manbai bo'lib xizmat qiladi.

Cho'l yaylov o'simliklarining ozuqaviy qiymati va biokimyoviy tarkibi fasllar o'zgarishi bilan keskin tebranadi. Bahor oylarida namlikning yetarliligi va o'simliklarning yosh novda otishi natijasida ozuqaviylik yuqori bo'lsa, yozning issiq oylarida va kuz-qish davrida o'simliklarning yog'ochlanishi hamda ozuqaviy qiymatining pasayishi kuzatiladi [1]. Shu sababli, cho'l yaylovlaridan samarali foydalanish va qorako'lchilikda barqaror ozuqa balansini yaratish uchun asosiy turlarning mavsumiy dinamikasini o'rganish ilmiy tadqiqotlarimizning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqot obyekti sifatida cho'l va sho'rxok yaylovlarining dominant oziqabop o'simlik turlari tanlab olindi. Shuvoq (*Artemisia diffusa*) – chala buta. Izen (*Kochia prostrata*) – ko'p yillik chala buta. Olabuta (*Atriplex spp.*) sho'radoshlar vakili. Keyreuk (*Salsola gemmascens*)– chala buta. Saksovul (*Haloxylon persicum* / *H. aphyllum*) – yirik buta/daraxtsimon o'simlik. Cho'g'on (*Aellenia subaphylla*) – sho'radoshlar oilasiga mansub chala buta. Tadqiqot davomida o'simliklarning fenologik fazalari kuzatildi hamda bahor, yoz, kuz va qish fasllarida namunalar olinib, laboratoriya sharoitida quruq modda, xom protein, xom kletchatka hamda mineral moddalar miqdori zootexnik va biokimyoviy usullarda aniqlandi [2,3].

Tadqiqot natijalari. Laboratoriya va yaylov kuzatuvlari natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, bahor faslida barcha turlarning tarkibida xom protein va suv miqdori maksimal darajaga yetadi. Yoz oylarida haroratning ko'tarilishi va havo quruqligi tufayli kletchatka

miqdori ortadi, protein miqdori esa kamayib boradi. Kuz va qish oylarida sho'radoshlar (keyreuk, cho'g'on, olabuta) mineral tuzlar va biologik faol moddalarni yaxshi saqlab qolganligi sababli, bu davrda qo'ylar uchun muhim ozuqa hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida cho'l oziqabop o'simliklarining fasllar bo'yicha to'yimlilik va biokimyoviy ko'rsatkichlari o'rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

**Cho'l oziqabop o'simliklarining fasllar bo'yicha to'yimlilik
va biokimyoviy ko'rsatkichlari (1 kg quruq modda hisobiga).**

O'simlik turi	Fasl	Quruq modda, g	Xom protein,%	Xom kletchatka,%	Mineral tuzlar (kul),%	Ozuqa birligi (1kg q.m.)
Shuvoq	Bahor	320	17.5	19.2	8.5	0.72
	Yoz	580	11.2	27.4	10.1	0.51
	Kuz	740	9.8	31.0	11.5	0.44
	Qish	820	7.4	34.2	12.0	0.38
Izen	Bahor	310	19.1	18.0	9.2	0.76
		540	13.5	24.8	11.4	0.58
		690	11.0	28.5	12.8	0.49
		790	8.9	31.6	13.5	0.42
Olabuta	Bahor	280	16.2	17.5	14.2	0.65
		490	12.0	22.1	18.5	0.52
		620	10.5	25.0	21.0	0.46
		710	8.1	28.2	22.4	0.39
Keyreuk	Bahor	340	14.8	21.0	12.0	0.61
	Yoz	560	10.9	26.3	15.6	0.48
	Kuz	710	11.8	24.1	18.2	0.53
	Qish	800	9.6	27.5	19.8	0.45
Saksovul	Bahor	410	12.1	25.4	11.0	0.55
	Yoz	620	8.8	32.1	14.2	0.41
	Kuz	760	7.9	36.5	15.8	0.36
	Qish	850	6.5	39.0	16.5	0.31
Cho'g'on	Bahor	300	15.5	18.8	13.1	0.63
	Yoz	510	11.7	23.5	17.0	0.50
	Kuz	670	12.4	22.9	19.5	0.54
	Qish	760	9.2	26.8	20.8	0.43

Qorako'l qo'ylarini oziqlantirishda o'simlik turlarining mavsumiy iste'mol qilish holati muhim ahamiyatga ega. Qorako'l qo'ylarining muhim biologik xususiyatlaridan biri ularning turli fasllarda har xil o'simlik turlarini iste'mol qilishidir. Quyida keltirilgan 2-jadvalda mavsumlar bo'yicha qorako'l qo'ylarining ushbu o'simliklarni iste'mol qilish darajasi (ball hisobida: 5-o'ta yuqori, 1-minimal) o'rganilgan.

2-jadval

O'simlik turi	Bahor	Yoz	Kuz	Qish	Asosiy hazm bo'lish xususiyati
Shuvoq	3	2	5	5	Kuz va qishda efir moylari kamayib,

					iste'moli va to'yimliliği keskin ortadi.
Izen	5	4	4	3	Bahor va yozda eng sevimli va hazm bo'lishi oson ozuqa.
Olabuta	4	3	4	3	Suv va mineral tuzlarga boy, shirasini uzoq saqlaydi.
Keyreuk	2	2	5	4	Kuzda urug'lagan davrida va qishda asosiy ozuqaga aylanadi.
Saksovul	2	1	3	4	Qishki bo'ron va qorli kunlarda zaruriy ozuqa to'ldiruvchisi.
Cho'g'on	3	2	5	4	Kuz-qish oylarida qo'ylarning semirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, bahor faslida qo'ylar ko'proq izen va olabuta kabi sero't va hazm bo'lishi yengil bo'lgan o'simliklarni xush ko'radi. Shuvoq tarkibidagi efir moylarining ko'pligi sababli bahorda nisbatan kamroq yeyiladi. Yoz faslida izen va olabuta asosiy ozuqa vazifasini o'taydi. Saskovul va keyreuk novdalari sertola bo'lib qolishi sababli iste'mol darajasi tushadi. Kuz va qish shuvoq, keyreuk va cho'g'on yetakchi ozuqaga aylanadi. Sovuq tushishi bilan shuvoq tarkibidagi achchiq efir moylari va glucotidlar miqdori kamayadi, natijada qo'ylar uni juda ishtaha bilan yeydi. Sho'radoshlar (keyreuk, cho'g'on) esa qishki davrda organizmda mineral va tuz balansini ushlab turishga yordam beradi.

Xulosa. Cho'l yaylov o'simliklarining to'yimlilik darajasi fasllar kesimida keskin farqlanadi. Bahor oylarida izen va olabuta eng yuqori ozuqaviy qiymat (0.65–0.76 oz.b.) va protein ko'rsatkichiga ega bo'lsa, kuz va qish davrida shuvoq, keyreuk va cho'g'on asosiy energiya

hamda mineral manbai hisoblanadi.

Qorako'lchilik xo'jaliklarida yaylov bosimini to'g'ri taqsimlash uchun kombinatsiyalashgan (navbatli) yaylov tizimidan foydalanish zarur. Bahor-yoz oylarida izen-olabuta tarqalgan maydonlardan, kuz-qish fasllarida esa shuvoq-keyreuk hamda saksavul massivlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Degradatsiyaga uchragan cho'l yaylovlarining hosildorligini oshirish uchun izen va shuvoq aralashmalarini sun'iy ekish (fitomelioratsiya) orqali kuz-qishki ozuqa zaxirasini 1.5–2.0 barobarga ko'paytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muqimov T.H. va b. O'zbekiston cho'l yaylov o'simliklari va ulardan foydalanish. – Toshkent, 2018.
2. Shamsutdinov Z.Sh. Biogeotsenotik usulda cho'l yaylovlarini qayta tiklash. – Moskva, 2020.
3. Xamroev A.K. Qorako'lchilikda yaylov ozuqa bazasini rivojlantirish va mahsuldorlikni oshirish masalalari. – Samarqand, 2022.



**INNOVATIVE
ACADEMY**